

## PRIORITY DIRECTIONS OF STATE FINANCIAL CONTROL DEVELOPMENT.

*Barchinoy Bilimdon qizi Shahriddinova*

*Student of the Tashkent state university of Law, Faculty of Criminal Justice*

*[barchinoyshahriddinova4@gmail.com](mailto:barchinoyshahriddinova4@gmail.com)*

**Abstract:** *In this thesis, the concept, forms, types of state financial control, the opinions of national and foreign scientists, the importance of state financial control were studied, normative legal documents in this field were disclosed, and opinions on the topic were presented.*

**Keywords:** *state financial control, financial control, tax control, financial control bodies, State Financial Control Inspection.*

## DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Annotatsiya:** *Mazkur tezisdavlat moliyaviy nazorati tushunchasi, shakllari, turlari, milliy va xorijiy olimlarning fikrlari, davlat moliyaviy nazoratining ahamiyati o'rganildi, shu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar ochib berildi, mavzuga doir fikrlar keltirildi.*

**Kalit so'zlar:** *davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy nazorat, soliq nazorati, moliyaviy nazorat organlari, Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi.*

Uzoq tarixiy davrlar mobaynida shakllangan strategik usullar natijasi o'laroq, shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, moliyaviy nazoratning, xususan, davlat moliyaviy nazoratining o'rni davlat budjeti intizomini barqarorlashtirib, muvozanatda saqlashda nihoyatda katta hisoblanadi. Zero davlat budjetida nazorat o'rnatilmas ekan, turli huquqbuzarliklar, jumladan, budjet mablag'larini noqonuniy tarzda suiiste'mol qilinishi, o'z vaqtida soliqlarni to'lamaslik, soliqlarni yashirib hisoblab chiqarish va boshqa ko'plab g'ayriqonuniy qilmishlar sodir etilib, aniqlanmasdan qolib ketaveradi. Natijada budjetga mablag'lar o'z vaqtida yig'ilmaydi, kerakli sohalarda ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va boshqa sohalarga belgilab qo'yilgan muddatda yo'naltirilmaydi. Davlatning davlat sifatida e'tirof etilishida davlat budjetining mavjudligi belgisi muhim ahamiyatga egaligi bu sohadagi nazoratning ham nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu o'rinda moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati tushunchalariga ta'rif berib o'tadigan bo'lsak, moliyaviy nazorat- bu davlatning vakolatli mansabdor shaxslari va organlari tomonidan markazlashgan va markazlashmagan pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidagi faoliyatning

qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi ustidan amalga oshiriladigan nazorat turidir.<sup>1</sup> Moliyaviy nazoratning davlat moliyaviy nazorati va auditorlik nazorati kabi turlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksiga asosan, davlat moliyaviy nazorati budget to'g'risidagi qonunchilikning davlat moliyaviy nazorati obyektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik, shuningdek budget sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat moliyaviy nazorati shakllar va turlarga bo'linadi. Davlat moliyaviy nazoratining budget nazorati, soliq nazorati, bank nazorati, valyuta nazorati, bojxona nazorati kabi turlari bor. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir. Davlat budgetining va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlarining daromadlari qismi bo'yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, "Parlament nazorati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan, Qonunchilik palatasi, Senat Davlat budgetining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

A.N.Kozyrinning fikricha, moliyaviy nazorat- bu "... maxsus shakl va usullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan davlat organlarining faoliyati, shuningdek, ayrim hollarda moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va ishonchligini belgilash vakolatiga ega bo'lgan nodavlat organlarining faoliyati, moliya-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini obyektiv baholash, uni oshirish uchun zaxiralarni aniqlash, budget rentabelligini oshirish va mulkni davlat "qo'lida" saqlashdir" deb izohlangan.<sup>2</sup>

Davlat moliyaviy nazoratining maqsadi ishlab chiqarishning barcha sohalarida moliyaviy resurslarni boshqarish amaliyotining davlat moliyaviy siyosatining vazifalariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.<sup>3</sup>

Davlat moliyaviy nazoratisiz budget intozimini saqlashni tasavvur qilib ko'raylik? Albatta, kelib chiqadigan salbiy oqibatlarini o'ylab, buning sira iloji yo'qligini anglab yetamiz. Buning asosiy sabablaridan biri hech bir sohani intizom va tartib-qoidalarsiz tasavvur qilolmas ekanmiz, davlat budgetini tashkil qilish, uni sarflashda moliyaviy nazoratning nihoyatda ahamiyatli ekanligini tushunib yetamiz. Masalan, yil sayin tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga minglab imkoniyatlar eshigi ochilib borayotganligi boisidan yurtimizda yakka tartibdagi tadbirkor sifatida yoki yuridik shaxs tashkil etgan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar soni ortib bormoqda. Bilamizki, Respublika budgetining asosiy manbasi jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar hisoblanadi. Agarda davlat moliyaviy nazoratining asosiy turlaridan biri hisoblangan soliq nazorati amalga oshirilmasa, ba'zi tadbirkorlar tomonidan soliqlarni to'lamaslik yoki ularni yashirib ko'rsatish huquqbuzarliklari sodir etilishi mumkin.

So'ngi yillarda davlat moliyaviy nazorati va auditini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning samarasi o'laroq, "O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2022 yil 14 fevraldagi PQ-128-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-martdagi "Moliya Vazirligi huzurida Davlat moliyaviy

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi, 2011 Sh. B. Bilolxo'jayeva, G'. T. Hakimov

<sup>2</sup> Jaxbarov, Jamshidbek. "Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari."

<sup>3</sup> Abduazizov, Sarvarbek Rasuljonovich. "Davlat moliyaviy nazoratining nazariy va huquqiy asoslari." *Scientific progress* 2.8 (2021): 250-256

nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda budget tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 129-sonli Qarori, shuningdek, 2022-yil 5-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 431-sonli Qarorlariga asosan, davlat moliyaviy nazorati faoliyati sohasida ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli organlar sonini oshirgan holda Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va uning hududlardagi boshqarmalarining tashkil etilganligi misolida ko'rishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-128-sonli Qaroriga muvofiq: "Moliya vazirligi, Hisob palatasi hamda Bosh prokuraturaning Moliya vazirligi tarkibidagi Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari negizida Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin", deb belgilab qo'yildi (Ma'lumot o'rni: PF-14-sonli "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentning Farmoniga asosan, Moliya Vazirligi – "Iqtisodiyot va moliya vazirligi" sifatida qayta tashkil etildi). Vazirlar Mahkamasining 431-sonli Qarorida, inspeksiya moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini, O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlari mablag'larining maqsadli sarflanishini, moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan budget qonunchiligiga, shuningdek, budget va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat moliyaviy nazorat organi hisoblanishi mustahkamlab qo'yilgan. Inspeksiyaning asosiy vazifa va funksiyalaridan biri O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag'lari va budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan foydalanishda budget qonunchiligiga hamda budget va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish hisoblanadi.

Respublikamizda moliyaviy-huquqiy munosabatlar sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish, davlat budgetini shakllantirish va uni to'g'ri sarflashda davlat moliyaviy nazoratini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ushbu faoliyat sohasidagi korrupsion holatlarga qarshi izchil kurashish hisoblanadi. Ushbu kurashni bevosita moliyaviy-huquqiy munosabatlar sohasida vakolatli organlar va ustidan moliyaviy nazorat amalga oshirilishi lozim bo'lgan budget tashkilotlari va budgetdan mablag' oluvchi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek bu borada moliyaviy nazorat sohasini raqamlashtirish hamda aqlli tartibga solish mexanizmini joriy etish ham samarali natija beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.B.Bilolxo'jayeva, G'.T.Hakimov. 2011 O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi 69-73-bet;
2. Abduazizov, Sarvarbek Rasuljonovich. "Davlat moliyaviy nazoratining nazariy va huquqiy asoslari." *Scientific progress* 2.8 (2021): 250-256;
3. Jaxbarov, Jamshidbek. "Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari." *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali* 3.2 (2023): 73-80;
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari Milliy bazasi.